



ZAMONAVIY QUROLI MOJAROLARDA TAKTIK BO'G'INDAGI BO'LINMALARNI QO'LLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Sharipov Ibrat G'ayrat o'g'li

*O'zbekiston Respublikasi Harbiy Xavfsizlik va Mudofaa Universiteti
Shimoli-g'arbiy Harbiy okrug Fakulteti kafedra boshlig'i podpolkovnik*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada jahonda va mintaqada sodir bo'layotgan gibrid ko'rinishidagi va assimetrik qurolli nizolarning o'ziga xos xususiyatlari o'rganilgan. Mavzu doirasida o'tkazilgan qiyosiy tahlillar va retrospektiv yondashuvdan kelib chiqib misollar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *lokal urush, taktik harakatlar, qurolli mojaro, gibrid urush, assimetrik urush.*

Annotatsiya: *В данной статье исследуются особенности столкновений с гибридным и асимметричным характером, происходящих в мире и в регионе. В рамках темы приводятся примеры, основанные на сравнительном анализе и ретроспективном подходе.*

Ключевые слова: *локальная война, тактические действия, вооруженный конфликт, гибридная война, асимметричная война.*

Abstract: *This article explores the peculiarities of hybrid and asymmetric weapon collisions taking place in the world and in the region. Within the framework of the topic, examples are given based on comparative analysis and a retrospective approach.*

Keywords: *local war, tactical action, armed conflict, hybrid war, asymmetric war.*

Bugungi globalashuv davrida mamlakatlarning milliy va geosiyosiy manfaatlaridan, jahondagi va mintaqadagi yuzaga kelgan harbiy-siyosiy vaziyatdan, harbiy sohada mamlakatlarning milliy xavfsizligiga bo'lgan tahdidlar darajasidan, ro'y berayotgan zamonaviy harbiy mojarolarning xususiyatlaridan kelib chiqib Markaziy Osiyo mamlakatlari shu jumladan, O'zbekiston Respublikasiga ham ehtimoliy harbiy to'qnashuvlarga qarshi kurashishga, lokal, gibrid⁴⁸, assimetrik⁴⁹ va mintaqaviy urushlarni paydo bo'lishiga qurollangan to'qnashuvlarga qarshi kurashish talabi ortib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti – Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni SH. M. Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari tashkil etilganining 31 yilligi munosabati bilan vatan himoyachilariga bayram tabrigida ta'kidlaganidek: “bugungi kunda butun jahonda, jumladan, bizning mintaqamizda, bevosita chegaralarimiz yaqinida turli tahdid va xatarlar tobora kuchayib bormoqda.

⁴⁸ Gibrid urush - bu dushmanlik harakatlarining bir turi bo'lib, unda hujum qiluvchi tomon klassik harbiy bosqinga murojaat qilmaydi, balki yashirin operatsiyalar, sabotaj, kiber urushlar kombinatsiyasi yordamida raqibini bostiradi, shuningdek dushman hududida faoliyat yuritayotgan isyonchilarni qo'llab-quvvatlaydi.

⁴⁹ Assimetriya (qad.-yunon. ἀσυνμετρία. “nomutanosiblik” dan “men o'lchayman”) – simmetriya (tenglik) ning yo'qligi yoki buzilishi. Bu atama ko'pincha vizual ob'ektlarga nisbatan va tasviriy san'atda qo'llaniladi.



Dunyoda ro'y berayotgan gibriddagi qurolli to'qnashuvlar tahlili bizdan Qurolli kuchlarimizning jangovar harakatlar jarayonida ilgari amalda qo'llanilmagan qurollardan foydalanadigan kuchlarga qarshi kurasha olish qobiliyatini oshirishni taqozo etmoqda" [1].

Mintaqaviy, gibriddagi (assimetrik) va lokal ko'rinishidagi urushlar - qurolli to'qnashuvlarda terroristik va qo'poruvchilik harakatlardan keng foydalanish, strategik muhim davlat va harbiy ob'ekt va hududlarni qo'lga olishga yoki izdan chiqishga intilish, logistika, energetika, axborot (texnologiya) kommunikatsiyalarini buzish (bostirish) va yo'q qilish bilan ifodalanadigan xarbiy harakatlardir.

Zamonaviy umumqo'shin jangining asosiy xususiyatlari vaziyatning tez va shiddatli o'zgarishi, jangovar harakatlar fronti va ichki sarhadlarining chuqurligi bir chiziqda joylashmasligi, jangni olib borish usullarining turli tumanligi, shaxsiy tarkibni jismonan va axloqiy - ruhiy jihatdan kuchli zo'riqishi, jonli kuchlar va qurol-yarog' bo'yicha katta talofat ko'rilishidan iborat [2].

XXI asrning boshida ro'y bergan harbiy majorolarni rivojlanish tendentsiya⁵⁰sini o'ziga xosligi bu harbiy san'atda keng masshtabda olib boriladigan taktik hatti-harakatlarda o'z ifodasini to'liq namoyon qilmayotganligi, bunda jang maydonining turli xil ko'rinishda ekanligi bilan xarakterlanadi. Zamonaviy jangda quruqlikdagi kuchlar, ikkinchi jahon urushi davrida bo'lgani kabi alohida taktik birliklarning kombinatsiyasiga ega bo'lgan bo'linmalardan iborat bo'lmasdan yuqori mobil kichik taktik guruhlardan tashkil topgan [3].

Tahlil, keskin o'zgaruvchan harbiy mojarolar⁵¹, to'qnashuv va lokal urushlarda jang olib borish an'anaviy (klassik) jangovar harakatlardan tubdan hamda izchil farq qilishi kichik guruhlar tarkibiga ega bo'lgan guruh va bo'linmalar tarkibida harakatlanish va bu bilan yuqori manyovra, tezkorlikka, nostandart vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilgan holda jang olib borish tendentsiyasi bilan xarakterlanadi.

Harbiy soha tadqiqotchilari zamonaviy harbiy mojarolarning o'ziga xos jihatlarini, (klassik) ana'naviy usullardan farqli ekanligini ikkinchi jahon urushidagi ana'naviy xarakterga ega bo'lgan xarbiy harakatlar bilan qiyosiy tahlil qilib, yoritib berganlar [4].

Shahar sharoitidagi noan'anaviy jangovar harakatlarning xronologiyasini kuzatadigan bo'lsak, 2006- yildagi Livan urushidagi "Xizbulloh" diniy siyosiy tashkilotining harakatlarida yashirin pozitsiyalar va yer osti kommunikatsiya⁵²laridan foydalangan holda shuningdek, Livanning aholi punktlarida manyovrlar amalga oshirib isroil armiyasi kuchlarini neytralizatsiya holatiga keltirishga erishgan. Ushbu taktika natijasida isroil armiyasi Livan bilan Isroil chegarasidagi aholi punktida ikki hafta davomida "Xizbulloh" tashkiloti pozitsiyalariga nisbatan samarasiz hujumlar olib

⁵⁰ Tendentsiya - (eski lot. tendentia - "yo'naltirmoq"), (lot. tendo - "yo'naltiraman"), biror narsaning rivojlanishi sodir bo'ladigan ma'lum bir hodisaga nisbatan barqaror rivojlanish yo'nalishi.

⁵¹ "Xarbiy mojarolar" tushunchasi keng masshtabli, mintaqaviy, mahalliy urushlar va qurolli to'qnashuvlarni o'z ichiga olgan barcha qurolli qarama-qarshiliklardan iborat bo'lgan xarbiy harakatlardir.

⁵² kommunikatsiya - (lot. Communicatio - xabar, uzatish; lot. Communico - umumiy lashtiraman), kommunikatsiya - harbiy faoliyatda, aloqa yo'li, aloqa liniyasi, ta'minot.



borgan. Isroil armiyasi zamonaviy xavo kuchlarini qo'llaganligi sababli "Xizbulloh" a'zolarini tor-mor qilishga erishgan [3].

Shuningdek, Yaqin sharq davlatlarida faoliyat yuritayotgan "Islom davlati"ning muntazam kuchlarga qarshi olib borayotgan terroristik harakatlarini baholaydigan bo'lsak, ularning harakati ham aynan noan'anaviy qurolli mojarolar sinfiga kiradi.

2011- yilning mart oylarida "Arab bahori" nomi bilan boshlangan qo'zg'olonlar yaqin sharq davlatlarida ommaviy tartibsizliklar, qurolli mojaro va qo'zg'olonlarni yuzaga keltirdi. 2014- yil aprel oyida Suriya Arab Respublikasi Qurolli kuchlariga qarshi noqonuniy qurollangan qo'zg'olonchilar faoliyati keskin darajada jadallashdi. Suriya Arab Respublikasi Qurolli kuchlari tomonidan "Islom davlati" noqonuniy qurollangan tashkilotiga qarshi olib borilayotgan tadbirlar deyarli shahar sharoitida amalga oshirilgan. Ushbu kuchlarga qarshi o'tkazilayotgan jangovar harakatlar o'rganilganda, ular bilan kurash olib borish vaqtida qoidaga ko'ra, dushman bilan to'qnash kelgunga qadar, ya'ni masofali o't ochish jangi orqali yo'q qilish amalga oshirilgan, bunda aviatsiya va artilleriya kuchlaridan foydalanilgan, bu harakatdan so'ng yakuniy xarbiy harakatlarni quruqlikdagi qo'shinlar davom ettirganligini bilish mumkin [3].

Rossiyalik harbiy ekspertlar Suriya Arab Respublikasida olib borilgan xarbiy harakatlardan ISHID jangarilarning o'ta qat'iyatlik bilan jang olib borishganligini ta'kidlashgan. Dushmanning tirik kuchlarini 50 foizini yo'qotishlariga qaramasdan, o'z pozitsiyasining tashlab ketmasligi, qabul qilingan qarorlariga amalga oshirish uchun oxirgacha kurashishligi kuzatilgan. ISHID pozitsiyalarni qo'lga olish uchun dushmanning 90 foizgacha ob'ektlariga o't ochib shikastlanishni amalga oshirishgan. Jang davomida "ISHID" otryadlari o'z pozitsiyalarini tashlab ketish holatlari bo'lmagan. Jangarilar tayanch punktlarini ushlab turishni so'ngi damgacha olib borishgan [3].

Yuqorida keltirilgan, harbiy mojarolarning tahlili shundan dalolat bermoqdaki, aksariyati harbiy harakatlar shahar va aholi punktlari hududlarida sodir etilayotganligi, bu esa o'z navbatida dushman bilan yaqin masofada jang olib borishda asosiy qurol sifatida o'q-otar qurollari xanuzgacha o'z ahamiyatini yo'qotmaganligidan dalolat beradi.

Qurolli Kuchlarning jangovar (komandirlik) tayyorgarlik tizimida maxsus tayyorgarlik (maxsus qo'shinlar va qo'shin turlarini jangovar qo'llanilishi) fanlari asosiy fanlaridan biri bo'lib xisoblanishi, shaxsiy tarkibning jangovar malakasini oshirishning tarkibiy qismiligicha qolayotganligi, uning maqsadi shaxsiy tarkibga qurol-aslahalarni hamisha jangovar shay holatda saqlanishi, zamonaviy jang sharoitlarida dushmanning kuch va vositalariga oldindan (preventiv) zarbalar berish hamda ishonchli talofat yetkazishdan iborat bo'lib qolmoqda.

Yaqin sharqdagi shahar, aholi punkti sharoitlaridagi jangovar harakatlarning o'ziga hos xususiyatlarini o'rganib, urbanizatsiya⁵³lashgan hududlar ustidan

⁵³ Urbanizatsiya (frans. urbanisation, ing. urbanization, lot. urbanus — shaharga mansub, urbs — shahar) — jamiyat hayotida shaharlar rolining ortib borishi; ishlab chiqaruvchi kuchlarning joylashuvi, aholining ijtimoiy, demografik tarkibi, turmush tarzi va madaniyatidagi o'zgarishlar bilan bog'liq.



muntazam nazorat o'rnatilishning muhim shartlaridan biri zamonaviy to'qnashuvlar davomida muvaffaqiyatga erishishning bir qator o'ziga xosliklarini namoyon qilmoqda.

Birinchidan, ko'rashayotgan tomonlarning jangovar to'qnashuvining aniq bir chizig'ining yo'qligi va uning vertikal cho'zilganligi (inshootlarning yer osti kommunikatsiyalaridan binolarning yuqori qavatlarigacha) va chuqurligi shaharda jangovar harakatlar olib borishning o'ziga xosliklari.

Ikkinchidan, kuch va vositalar bilan taktik hamda o't ochish bilan manyovrlarni amalga oshirishdagi zirhli (avtomobil) texnikalardan foydalanishdagi to'siq (barrikada) lar soni ko'pligi sababli paydo bo'layotgan qiyinchiliklar.

Uchinchidan, jangarilarning jangovar harakatlarning olib borish hudud (binolarning konstruktsiya) lari to'g'risida to'liq va yetarlicha ma'lumotga ega ekanligi.

Turtinchidan, jangovar harakatlar aholi punktlari (kvartallari)da olib borilayotganligi.

Shubhasiz, sezilarli miqdorda mahalliy aholi jangovar harakatlarni olib borayotgan qo'shinlar harakati uchun jiddiy qiyinchiliklar tug'diradi va jangovar harakatlar zonasidan ularni olib chiqishni ta'minlash, joylashtirishni tashkil etish, ular orasidan jangarilarni aniqlash bo'yicha tadbirlarni o'tkazish uchun qo'shimcha kuch va vositalarni jalb qilishni talab qiladi. Bundan tashqari, shahar ichidagi tinch aholining mavjudligi eng katta qiyinchilik tug'diradi, ba'zi hollarda esa artilleriya (armiya aviatsiya) va havo xujumidan mudofaa vositalarini samarali qo'llashga to'liq imkon bermaydi. Shahar sharoitidagi harakatlarda harbiy kuch va vositalardan minimal foydalanib aholi punktini qo'lga olish bo'yicha vazifani bajarish usullini topish eng asosiy muammo hisoblanadi.

Yuqori qayd etilgan qurolli majorolar tahlili shuni ko'rsatadiki, turli sharoitlarda noan'anaviy urushlarni olib borish harakatlarining o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari bu jang olib borishda yuqori manyovrchanlikni namoyon qilgan xolda barcha talofat yetkazish vositalari hamda o'q-otar qurollaridan tezkorlik bilan hujumga o'tish yoki hujumni qaytarish bilan dushmanning tirik kuch va vositalarini yo'q qilish bilan samarali jang olib borish usullaridan foydalanishdir.

Qisqa va o'rta masofalarda jang olib borish xatti-harakatlarining samaradorligini oshirish maqsadida taktik (mahsus) tayyorgarlik fanlarining nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini uyg'unlashtirish orqali taktik vaziyatli qisqa masofaga o'q otish mashg'ulotlarini shakllantirish, bu bilan harbiy xizmatchilarning yakka tartibda yoki guruh tarkibida o'q otish usullarining bilim, malaka va ko'nikmalarini yuqori darajada shakllantirishni o'rganish, o'quv-jangovar, jangovar-hizmat faoliyatida maxsus tayyorgarlikning fanlarnidan olib boriladigan o'quv mashg'ulotlarni esa real jangovar holatga yaqinlashtirilgan xolda tashkillashtirilishi lozim.

Yaratilgan taktik holatli o'q otish maydonida bo'lib o'tadigan hamda turli yuzaga kelgan nostandart vaziyatlarda asosli qaror qabul qilish maqsadida quyidagi masshtablarda olib borilishi mumkin:



Qisqa masofada jang olib borish masofasi qisqa masofa 5 metrdan 20 metrga qadar, yaqin masofadan 20 metrdan 100 metrga qadar va o'rta masofadan esa 100 metrdan 500 metrga qadar olib borilishi mumkin [4].

Tahlikali vaziyatlarda jangchi o'z xayoti uchun xavfli bo'lgan muhitda harakatlanishi, mudofaadan qarshi hujumga o'tish bu bilan shartli dushman nishonlariga qarab samarali jang olib borish mashqlarini bajaradi.

Yuqorida keltirilganlarni taxlil qilib quyidagilarni xulosa qilish mumkinki, amaliy otish mashg'ulotlari o'tkazilganda, jangovar harakatlarga imkon qadar yaqinlashtirilgan tarzda tashkillashtirish, harbiy xizmatchilarning ma'naviy, ahloqiy-ruhiy va jismoniy kuchlarini maksimal safarbar etish orqali jangchining jangovar irodasi mustahkamlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025- yil 13- yanvar kungi O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 31 yilligi munosabati bilan vatan himoyachilariga bayram tabrigi nutqi.
2. Dolimov SH. Harbiy atamalarning qisqacha izohli lug'ati. –T:, 68 bet.
3. Выступление Командующего ЦВО ВС РФ генерал-лейтенант Лапина А.П в Академия ВС РУ перед ППС и Слушателями факультета ВБ и ОГ. 14.02.18 й.
4. Samarov R.R, Yusupov. R, Ibragimov M, Zamonaviy urush va qurolli to'qnashuvlar tendentsiyasi: harbiy san'atning rivojlanish konteksida (monografiya).- Toshkent - 2021. 303 b.